

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Mexanika – matematika fakulteti

«Hisoblash usullari» kafedrası

Murodov Baxridin Axmatovich

**KO‘P O‘LCHOVLI FUNKSIYA UCHUN
GRADIYENTLI QIDIRUV USULLARI**

«5480100 – Amaliy matematika va informatika» ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar _____ dots. Sh.S.Mamatov

2013 y. «___» _____

Bitiruv malakaviy ish «Hisoblash usullari» kafedrasida bajarildi, kafedraning 2013 yil «___» _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (____ -son bayonnoma).

Kafedra mudiri _____ dots. A.Abdirashidov

Bitiruv malakaviy ish YaDAKning 2013 yil «___» _____dagi majlisida himoya qilindi va _____ ball bilan baholandi (____ -son bayonnoma).

YaDAK raisi: _____

A‘zolari: _____

Samarqand - 2013

Mundarija

Kirish	3-bet
1-§ Eng tez tushish usuli	5-bet
2-§ Kvadratik funksialar usuli.....	18-bet
3-§ Davidon – Fletcher – Pauell usuli.....	21-bet
4-§ Fletcher-Rivs usuli.....	34-bet
Xulosa	46-bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	47-bet

KIRISH

So'nggi 30 yil ichida gradientli usullarni tekshirish jadal suratlar bilan olib borilmoqda. Bu soxada ko'plab maqolalar yozildi va muhim muvaffaqiyatlarga erishildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida bu davrda ishlab chiqilgan metodlardan 3 tasi haqida so'z boradi. Bu qilingan ishlardan ayniqsa qo'shma yo'nalishlar g'oyasi va kvadratik funksiyalarining xossalari fundamental ahamiyatga egadir. Bu g'oyalarga asoslangan ko'plab metodlar ishlab chiqildi. Shulardan Davidon-Fletcher-Pauell va Fletcher-Rivs metodlari bitiruv malakaviy ishning tadqiqot obyektidir.

Masalaning qo'yilishi. Hozirgi vaqtda optimallashtirish masalalarini yechish uchun asosan quyidagi metodlardan foydalaniladi: Klassik analizning funksiyalarni tekshirish metodlari. Lagranjning noaniq ko'paytuvchilaridan foydalanishga asoslangan metodlar variasion hisob; dinamik dasturlash; maksimum prinsipi; chiziqli dasturlash.

Amaliyotda uchraydigan barcha masalalarni yechish uchun aniq bir metodni tavsiya qilish mumkin emas. Shu ma'noda ba'zibir metodlar boshqalariga qaraganda umumiyroq bo'lishi mumkin. Nihoyat, bir guruh metodlar (Klassik analizning funksiyalarni tekshirish metodlari, Lagranjning noaniq ko'paytuvchilar metodi, nochiziqli dasturlash metodlari) optimallashtirish masalasini yechishning ma'lum bosqichida, boshqa metodlar bilan, (masalan dinamik dasturlash yoki maksimum prinsipi) birgalikda qo'llaniladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda ko'p o'lchovli optimallashtirish masalalarini gradiyentli usullar yordamida sonli yechish masalalari qoraladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bir o'zgaruvchili funksiyaning ekstremumlarini topish alohida qiziqish tug'diradi, chunki bu masala ko'p o'lchovli optimallashtirishning ko'pgina metodlarining tashkiliy qismidir. Optimallashtirish masalasini muvaffaqiyatli yechish asosan ko'p o'lchovli qidiruvni to'g'ri tashkil qilishga bog'liqdir. Malakaviy ishda ko'p o'lchovli gradiyentli usullarning eng so'nggi usullari qaralgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu ishning maqsadi ko'p o'lchovli optimallashtirish masalalari bilan tanishish, optimallashtirish masalalarini yechishning har xil metodlarini o'rganish, ko'p o'lchovli optimallashtirish masalalarini BEYSIK dasturlash tili yordamida sonli yechishdan iboratdir.

Tadqiqot metodlari. Optimallashtirish masalalari ko'p o'lchovli optimallashtirishning quyidagi metodlari bilan yechiladi:

- 1) Eng tez tushish usuli
- 2) Kvadratik funksialar
- 3) Davidon – Fletcher – Pauell usuli
- 4) Fletcher-Rivs usuli.

Ilmiy ahamiyati. Ko'p o'lchovli shartsiz optimallashtirishning 4 ta metodi qiyosiy tahlil qilinadi, ularni BEYSIK dasturlash tili yordamida yechish usullari ko'rsatiladi.

Amaliy ahamiyati. Ishning natijalaridan optimallashtirishning sonli usullaridan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qisim (4 ta paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir. Ishning umumiy hajmi 48 bet.

Olingan natijalarning qisqacha mazmuni. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi ko'p o'lchovli optimallashtirish masalalarining gradientli usullaridan Eng tez tushish usuli, Kvadratik funksialar, Davidon – Fletcher – Pauell usuli, Fletcher-Rivs usullarini o'rganib chiqish, har bir usul uchun optimallashtirish masalalarini yechadigan dasturlar tuzish va bu dasturlarni aniq olingan misollarda ishlatib natijalar olishdan iborat edi. Bu vazifa har bir metod uchun bajarildi, dasturlar BEYSIK tilida amalga oshirildi.

1-§ Eng tez tushish usuli

Bu bobda funksia qiymatlari bilan bir qatorda uning gradientidan foydalaniladigan usullar qaraladi. Kordinata bo'yicha tushish usuli yordamida berilgan nuqtadan biror o'qqa parallel ravishda shu yo'nalish bo'yicha minimum nuqtasiga qarab qidiruv olib boriladi. So'ngra qidiruv bosqa o'qqa parallel ravishda olib boriladi va h.k. Yo'nalish fiksirlangan bo'ladi. Bu qidiruvni shunday o'zgartirish kerakki har bir bosqichda qidiruvni "eng yaxshi yo'nalish" bo'yicha olib borish zarur. Biroq qaysi yo'nalish "eng yaxshi yo'nalish" bo'lishi no'malum, lekin malumki gradientning yo'nalishi funksianing eng o'sish yo'nalishi bo'ladi.

Natijada qarama-qarshi yo'nalish funksianing eng tez kamayish yo'nalishi bo'ladi. Bu hodisa quyidagicha asoslanishi mumkin. Faraz qilaylik, x nuqtada $x+hd$ nuqtaga o'tish amalga oshirilsin, bu yerda d - biror yo'nalish, h - qadam uzunligi. Natijada ko'chish $(x_1, x_2, \dots, x_n)$ nuqtadan $(x_1 + \delta x_1, x_2 + \delta x_2, \dots, x_n + \delta x_n)$ nuqtaga amalga oshiriladi. Bu yerda

$$\delta x_i = h d_i, \quad (1)$$

d_i - d yo'nalishning kosinuslari va

$$\sum_{i=1}^n d_i^2 = 1 \quad (2)$$

funksia qiymatlarining o'zgarishi δx_i ning birinchi darajasida

$$df = f(x_1 + \delta x_1, x_2 + \delta x_2, \dots, x_n + \delta x_n) - f(x_1, x_2, \dots, x_n) =$$

$$\frac{\partial}{\partial x_1} \delta x_1 + \frac{\partial}{\partial x_2} \delta x_2 + \dots + \frac{\partial}{\partial x_n} \delta x_n \quad (3)$$

munosabat bilan aniqlanadi, bunda xususiy hosilalar x nuqtada hisoblanadi. d_i yo'nalishni qanday tanlansa funksia qiymatlarining o'zgarishi df eng katta bo'ladi. Bu yerda cheklashni maksimallashtirish masalasi paydo bo'ladi va uni yechish uchun Lagranj ko'paytuvchilari usulidan foydalanamiz. Buning uchun

$$-\varphi(d_1, d_2, \dots, d_n) = df + \lambda (\sum d_i^2 - 1)$$

funksiani aniqlaymiz. (2) shartni qanoatlantiruvchi df miqdor maksimumga erishishi uchun

$$\varphi(d_1, d_2, \dots, d_n) = h \left(\frac{\partial f}{\partial x_1} \delta x_1 + \frac{\partial f}{\partial x_2} \delta x_2 + \dots + \frac{\partial f}{\partial x_n} \delta x_n \right) + \lambda (d_1^2 + d_2^2 + \dots + d_n^2 - 1) \quad \text{funksia}$$

maksimumga erishishi zarur. Uning xossasi $\frac{\partial \varphi}{\partial d_j} = h \frac{\partial \varphi}{\partial d_j} + 2\lambda d_j \quad j=1, 2, \dots, n.$

Agar $\frac{\partial \varphi}{\partial d_j} = 0$ u holda $d_j = \frac{h}{2\lambda} \frac{\partial}{\partial x_j}$

Natijada

$$\frac{d_1}{\frac{\partial}{\partial x_1}} = \frac{d_2}{\frac{\partial}{\partial x_2}} = \dots = \frac{d_n}{\frac{\partial}{\partial x_n}} \quad (6)$$

U holda $d_i = \partial f / \partial x_i$ va d yo'nalish x nuqtada $\nabla f(x)$ ning yo'nalishiga parallel bo'ladi. Shunday qilib funksianing berilgan h qadamda eng tez o'sishi uchun d yo'nalish $\nabla f(x)$ yoki $g(x)$ bo'lishi kerak. Shuning uchun eng tez tushish yo'nalishi


$$- \nabla f(x) - g(x). \quad (7)$$

yo'nalish bo'ladi (3) tenglamani qisqacha $df = |\nabla f(x)| |dx| \cos \theta$, ko'rinishda yozish mumkin, bu yerda θ -burchak $\nabla f(x)$ va dx lar orasidagi burchakdir. dx berilgan miqdor uchun $\theta = 180^\circ$, deb tanlab df ni maksimallashtiramiz bunda dx ning yo'nalishi $-\nabla f(x)$ ning yo'nalishi bo'lsa bir xil bo'ladi.

Eslatma: Gradientning yo'nalishi o'zgarmas satxli chiziqlarning ixtiyoriy nuqtasiga perpendikulyar bo'ladi, chunki bu chiziqlar bo'yicha funksiya o'zgarmas bo'ladi. Shunday qilib agar $(d_1, d_2, \dots, d_n)$ -sath chizig'i bo'ylab kichik qadam bo'lsa, u holda $f(x_1 + d_1, x_2 + d_2, \dots, x_n + d_n) = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$ va, natijada

$$df = \sum_{j=1}^n \frac{\partial}{\partial x_j} d_j = \nabla f(x)^T d = 0 \quad (8)$$

ni hosil qilamiz (1-chizma)



1-chizma


Eng tez tushish usuliga gradientning ko'rib o'tilgan xossaligidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, agar biz x_j - optimallashtirishning biror qadamida bo'lsak, u holda qidiruv $\nabla f(x_j)$ yo'nalish bo'yicha olib boriladi. i -qadamga minimum nuqtasi x_i nuqta bilan approksimasialanadi. Keying approksimatsia

$$x_{i+1} = x_i - \lambda_i \nabla f(x_i) \quad (9)$$

nuqta bo'ladi, bu yerda

$$\lambda_i - \varphi(\lambda) = f[x_i - \lambda \nabla f(x_i)]. \quad (10)$$

minimallashtiruvchi λ ning qiymati. λ_i qiymatlari bir o'lchovli qidiruvning biror usuli bilan topilishi mumkin. Eng tez tushish usulining blok sxemasi (2) chizmada keltirilgan.



2-chizma

Eng tez tushish usulini dasturi.

20 PRINT "ENG TEZ TUSHISH METODI"

40 PRINT " Z=F(X1,X2,...,XN)FUNKSIA 2000 SATRDA HISOBLANADI"

60 PRINT "G(1),G(2),...,G(N) XUSUSIY HOSILALAR 3000 SATRDA
HISOBLANADI"

80 PRINT" BIR O'LCHOVLI QIDIRUV KVADRATIK INTERPOLYATSIYA
METODI BILAN BAJARILADI"

100 PRINT "O'ZGARUBCHILAR SONI KIRITILSIN":INPUT N

120 DIM X(N),Y(N),G(N),D(N),L(4),FF(4)

```

140 REM.L(4) VA FF(4) MASSIVLAR KVADRATIK
INTERPOLYATSIYADA FOYDALANILADI
160 PRINT "BOSHLANG'ICH NUQTA KIRITILSIN"
180 FOR I=1 TO N:INPUT X(I):NEXT I
200 PRINT "BOSHLANG'ICH QADAM KIRITILSIN":INPUT L
250 PRINT "JOYIZ QIYMATLAR"
260 REM ORALIQ PECHAT SARLOVHASI
300 FOR I=1 TO N:Y(I)=X(I):NEXT I
320 QOSUB 2000:GOSUB 3000:IF G0<.000001 THEN SOTO 1200
340 FOR I=1 TO N:D(I)=G(I)/G0:NEXT I
360 REM Yd NUQTADAN ENG TEZ TUSHISH YO'NALISHI BERILSIN
370 REM [BOSHLANG'ICH X(I) GA TENG BO'LGAN]
380 L(1)=0:FF(1)=Z:ZZ=Z
400 L(3)=L
410 FOR I=1 TO N:X(I)=Y(I)+L(3)*D(I):NEXT I
430 BOSUB 2000:FF(3)=Z
440 GOSUB 3000
450 G2=0
460 FOR I=1 TO N:G2=G2+G(I)*D(I):NEXT I
470 IF FF(3)=FF(1) OR G2>0 THEN GOTO 500
480 L=2*L:B0T0 400
500 REM MINIMUMNI QOPLASH UCHUN 480
310 REM SATRDA QADAM UZUNLIGI IKKILANTIRILSIN
520 L(2)=L/2
540 FOR I=1 TO N:X(I)=Y(I)+L(2)*D(I):NEXT I
560 GOSUB 2000:FF(2)=Z
580 REM BIRINCHI KVADRATIK INTERPOLYATSIYA BAJARILSIN
600 L(4)=L*(FF(2)-.75*FF(1)-.25*FF(30))/(2*FF(2)-FF(1)-FF(3))
620 IF L(4)<0 THEN PRINT "DIQQAT"
640 FOR i=1 TO N:X(I)=Y(I)+L(4)*D(I):NEXT I

```

```

660 BOSUB 2000:FF(4)=Z
680 REM LAMDANING 4 TA QIYMATIGA VA FUNKSIYANING 4 TA
QIYMATI BERILGAN,
690 REM ULARNI KAMAYISH TARTIBIDA JOYLASHTIRILSIN
700 FOR J=1 TO 3
710 FOR K=J+1 TO 4
720 IF FF(J)<=FF(K) THEN GOTO 760
730 LL=L(J):L(J)=L(K):L(K)=LL
740 FO=FF(J):FF(J)=FF(K):FF(K)=FO
750 REM AGAR FF(J) VA FF(K) TARTIBLANMAGAN BO'LSA O'RINLARI
ALMASHTIRILSIN
760 NEXT K:NEXT J
790 REM AGAR ANIQLIKKA ERISHILSA 800 SATRDA BERILGAN
795 REM YO'NALISH BO'YICHA QIDIRUV TO'XTATILSIN,
800 IF ABS(L(1)-L(2))<.00003 THEN GOTO 1000
810 REM UCHTA YAXSHI NUQTA SAQLAB QOLINSIN
820 S1=SGN(L(2)-L(1)):S2=SGN(L(3)-L(1))
830 S3=SGN(L(4)-L(1))
840 IF S1=S2 AND S1=-S3 THEN L(3)=L(4):FF(3)=FF(4)
850 REM BIRINCHI VA OXIRGI INTERPOLYATSIYA
860 DN=(L(2)-L(3))*FF(1)+(L(3)-L(1))*FF(2)+(L(1)-L(2))*FF(3)
870 F=(FF(1)-FF(2))/(2*DN)
880 F=F*(L(2)-L(3))*(L(3)-L(1))
890 L(4)=(L(1)+L(2))/2+F
900 FOR I=1 TO N:X(I)=Y(I)+L(4)*D(I):NEXT I
910 BOSUB 2000:FF(4)=Z
920 REM IKKINCHI INTERPOLYATSIYA TAKRORLANSIN
930 GOTO 700
1000 FOR I=1 TO N:X(I)=Y(I)+L(1)*D(I)
1002 Y(I)=X(I):PRINT "X(I)=",X(I)

```

```


1005 NEXT I
1010 PRINT ""
1020 GOSUB 2000:BOSUB 3000
1040 PRINT "F""Z:PRINT ""
1080 L=L/2
1100 IF GO>.00001 THEN GOTO 340
1150 REM JOYIZ NIQTADAN QIDIRUVNING NAVBATDAGI
ITERATSIYASIGA O'TISH
1200 PRINT ""PRINT
1220 FOR I=1 TO N:PRINT "X";I;"="(X(1):NYEXT I
1240 PRINT " F(X1,X2,...,XN)=" FUNKSIYANING MINIMUMI Z
1300 END
2000 Z=(X(1)-1)^2+(X(2)-3)^2+4*(X(3)+5)^2
2090 FE=FE+1
2100 RETURN
3000 GO=O
3100 G(1)=2*(X(1)-1
3200 G(2)=2*(X(2)-3)
3300 G(3)=B*(X(3)+5)
3800 FOR I=1 TO N:GO=GO+G(I)^2:NEXT I
3810 GO=SQR(GO)
4000 RETURN

```

Eng tez tushish usulini amalga oshiruvchi dasturiy taxlil qilib chiqamiz. Bunda blok sxemadagi berilganlar saqlanib qolingan (bosh harflarda), λ Lagranj ko'paytuvchisi L bilan belgilangan. 340 satrdagi vector birlik vektordir.

$$\varphi(\lambda) = f(x_i + \lambda d_i) \quad (11)$$

funksia minimumini x_i nuqtadan d_i yo'nalish bo'yicha qidirish uchun kvadratik iteratsiya usulidan foydalanilgan.



x_i nuqtada $\lambda=0$ va λ qadam uzunligini shunday tanlaymizki, qadam $\varphi(\lambda)$. funksia minimumini qoplasin.

Hosila
$$\frac{d\varphi}{d\lambda} = g(x_i + \lambda d_i)^T d_i \quad (12)$$

460- satrda (16) ifoda hisoblanadi va G2. bilan belgilanadi. 470-satrda minimumni “qoplash” sharti tekshiriladi, uning bajarilishi uchun $\varphi(\lambda) \geq \varphi(0)$, yoki $d\varphi(\lambda)/d\lambda (=G2) \geq 0$.

Eslatma : $d\varphi(0)/d\lambda = -g(x_i)^T g(x_i) < 0$ (3- a) va b) chizma).

Agar minimum $(0, \lambda)$, oraliqqa tushsa u holda λ , ni ikkilantiramiz va bu ikkilantirish “qoplash” sharti bajarilguncha takrorlanadi. $(0, \lambda)$, oraliq minimumini saqlashga ishonch hosil qilgandan keyin uchinchi nuqta sifatida $\lambda/2$ nuqta olinadi. Silliqlashtiruvshi kvadratik ko’phadning minimal nuqtasini $t = \lambda/2$ ga (12) munosabatdan topamiz, bu dasturning 600 satriga aks ettirilgan. Endi kvadratik iteratsiya bir o’lchovli kvadratik iteratsiya uchun tuzilgan dasturni takrorlaydi, faqat bu yerda satrlar soni 300 gacha oshirilgan. 800 satrda berilgan aniqlik ham o’z 1000 satriga $x_{i+1} = x_i$ o’zgartirish bajariladi, va agar $|g(x_{i+1})|$ yetarli kichik bo’lsa jarayon to’xtatiladi (bu tekshirish dasturning 1100 satrida bajariladi). Qadam uzunligi 1080 satrga kichiraytiriladi. Qidiruv jarayonida ekstremumga yaqinlashishi nazarda tutiladi, shuning uchun samarali ishlash uchun qadam uzunligini kichiraytirish maqsadga muvofiqdir. Bu qadam uzunligini aynan 2 ga qisqartirish ixtiyoriy tanlangan.

1-misol. Yuqorida keltirilgan dasturdan foydalanib

$$f(x_1, x_2, x_3) = (x_1 - 1)^2 + (x_2 - 3)^2 + 4(x_3 + 5)^2$$

funksiyaning minimum topilsin. Bu masalani yechish uchun yuqoridagi dastur to'g'ri keladi. Ko'rinib turibdiki $x_1=1$, $x_2=3$, $x_3=-5$. bo'lganda minimumga erishiladi va u nolga teng. (4; -1; 2) boshlang'ich nuqtadan va 4 ga teng boshlang'ich qadam bilan dastur yordamida minimumini 11 ta qadamda topish mumkin. Quyida dasturning berilishi keltirilgan.

ENG TEZ TUSHISH METODI.

Z=F(X1,X2,...,XN) FUNKSIYA 2000 SATRDA HISOBLANADI

G(1),G(2),...,G(N) XUSUSIY HOSILALAR 3000 SATRDA HISOBLANADI

BIR O'LCHOVLI QIDIRUV KVADRATIK INTERPOLYATSIYA METODI
BILAN BAJARILADI

O'ZGARUVCHILAR SONI KIRITILSIN

3

BOSHLANG'ICH NUQTA KIRITILSIN

4

-1

2

BOSHLANG'ICH QADAM KIRITILSIN

4

JOYIZ QIYMATLAR

X 1 = 3.23205

X 2 =.02373

X 3 =-5.166087

F = 13.95128

X 1 =1.189384

X 2 =2.747488

X 3 =4.558105

F=.880715

X 1 = 1.140915

$X_2 = 2.812114$
 $X_3 = -5.010485$
 $F = .0555979$
 $X_1 = 0.011955$
 $X_2 = 2.98406$
 $X_3 = -4.972104$
 $F = 3.50976 \times 10^{-3}$
 $X_1 = 1.008896$
 $X_2 = 2.968139$
 $X_3 = 5.000662$
 $F = 2.215617 \times 10^{-4}$
 $X_1 = 1.000754$
 $X_2 = 2.998995$
 $X_3 = 4.99824$
 $F = 1.396853 \times 10^{-5}$
 $X_1 = 1.000561$
 $X_2 = 2.999252$
 $X_3 = 5.000042$
 $F = 8.804964 \times 10^{-7}$
 $X_1 = 1.000047$
 $X_2 = 2.999937$
 $X_3 = 4.99989$
 $F = 5.51017 \times 10^{-7}$
 $X_1 = 1.000035$
 $X_2 = 2.999954$
 $X_3 = -5.000003$
 $F = 3.422542 \times 10^{-9}$
 $X_1 = 1.000004$
 $X_2 = -4.999995$
 $X_3 = -4.999993$

F= 2.68357VE-10

X 1 = 1.000003

X 2 = 2.999997

X 3 =5

F= 1.966782E-11

X 1 - 1.000003

X 2 = 2.999997

X 3 =-5

F(X1,X2,...,XN) FUNKSIYANING MINIMUMI = 1.966782E-11

Har bir iteratsiani tugash mezonini 800 satrda keltirilgan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bir o'zgaruvchili qidiruvni chuqur o'tkazish shart emas. Faqat funksia qiymatini $f(x_i)$ dan kichik bo'lishiga erishish zarur. Shuning uchun ehtimol 800 satrdagi operatorni yaxshisi `800 IF FF(1) < ZZ THEN GOTO 1000` operatorga almashtirish kerak. Birinchi qadamda bu ancha qo'pol ko'rinadi. Biroq hisoblashlar minimumini aniq qidirishga juda ko'p bo'lishi mumkin. Bu xildagi masalalarni yechishdagi amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu bosqichdagi yo'qotilgan narsalar minimumga aylanma yo'llar bilan borish orqali to'ldiriladi. Buni 2 misolda yaqqol ko'rish mumkin.

2-misol:

$$f(x_1, x_2, x_3) = (x_1 - 1)^4 + (x_2 - 3)^2 + 4(x_3 + 5)^4.$$

funksiyaning minimum topilsin.

Ko'rinib turibdiki funksia minimum (1; 3; -5) nuqtada nolga teng. Dastur natijasi raspechatkasi quyida keltirilgan. Yechimni qidirish uchun 9 ta iteratsia yetarli.

ENG TEZ TUSHISH METODI

Z=F(X1,X2,...,XN) FUNKSIYA 2000 SATIRDA HISOBLANADI

G(1),G(2),...,G(N) XUSUSIY HOSILALAR 3000 SATIRDA HISOBLANADI

BIR O'LCHOVLI QIDIRUV KVADRATIK INTERPOLYATSIYA METODI
BILAN BAJARILADI

O'ZGARUVCHILAR SONI KIRITILSIN

3

BOSHLANG'ICH NUQTA KIRITILSIN

4

2

-1

BOSHLANG'ICH QADAM KIRITILSIN

4

JOYIZ QIYMATLAR

$X_1 = -.1757255$

$X_2 = 2.07752B$

$X_3 = 2.237252$

$F = 33.29327$

$X_1 = .6431065$

$X_2 = 2.30976$

$X_3 = 5.021118$

$F = .4944399$

$X_1 = .7300417$

$X_2 = 2.975843$

$X_3 = 4.939602$

$F = 2.042376E-02$

$X_1 = .7408926$

$X_2 = 2.9V2069$

$X_3 = 5.001866$

$F = 4.842788E-03$

$X_1 = .8003951$

$X_2 = 3.012736$

$X_3 = -4.989102$

$$F = 2.224726E-03$$

$$X_1 = .8051051$$

$$X_2 = 3.008965$$

$$X_3 = -5.002012$$

$$F = 1.539329E-03$$

Endi diqqatni dasturga qarataylik. Birinchi qadamda funksia va argumentni hisoblash qismdasturni almashtirish yetarlidek tuyuladi. Lekin bu unchalik oson emas. Bugungi kunda omadli natijani kafolatlovchi “universal optimizator” mavjud emas. Keltirilgan dastur batamom tushunarli, biroq undan foydalanishda ehtiyot bo’lish kerak. Dasturning ishi bexosdan mofaqiyatsiz tugashi mumkin, buning sababi to’xtash qoidasining kuchsiz o’zgarishi bo’lishi mumkin (misolda <0.00001 , qiymatdan <0.0001 qiymatgacha) Agarda EBM ta’minlaydigan aniqlikdan kattaroq aniqlik talab qilinsa, u holda dastur to’xtab qolishi mumkin. Bunga har doim tayyor turish kerak. Aytib o’tish kerakki, eng tez tushish usuli jiddiy optimallashtirish usuli sifatida tavsiya qilinmaydi. Birinchi qadamda u qulay, lekin amaliy tadbiri uchun u juda sekin ishlaydi. Gap shundaki eng tez tushish xossalari faqat lokal xossalardir, va uning uchun ham yo’nalishni tez tez o’zgartirib turish zarur, bu esa natijada samarasiz hisoblashlarga olib keladi. Bu usul maqsad funksiasining ikkinchi xossalardan foydalanishga yaroqsizdir. Ikkinchi tartibli xossalardan foydalanishning eng yaxshi usuli eng soda funksialardan bo’lgan kvadratik funksialarning xossalari asoslangan usullarni ishlab chiqishdir. Agar (4) teylor qatoridan foydalanilsa, ko’rish mumkinki, minimum nuqtasi atrofida har qanday funksiani agar uning ikkinchi tartibli hosilasi nolga teng bo’lsa uning kvadratik funksia bilan approksimasialash mumkin. Shuning uchun kvadratik funksia uchun qidiruv usullari boshqa funksialar uchun ham samarali qo’llash mumkin. Qo’yidagi bo’limda n o’zgaruvchili kvadratik funksialarning muhim xossalari keltirilgan.

2-§ Kvadratik funksialar usuli

$$F(x) = a + x^T b + 1/2 x^T G x, \quad (13)$$

kvadratik funksiya, bu yerda a -o'zgarmas; b -o'zgarmas vektor va G -musbat aniqlangan simmetrik matritsa, $-x^*$ nuqtada minimumga ega, bunda x^* nuqtaga topiladi:

$$\nabla F(x^*) = b + Gx^* = 0, \quad (14)$$

Bu yerdan $x^* = -G^{-1} b$. (14) tenglamadan uzluksizlik sharti bajarilganda har qanday funksiyani x_0 nuqta atrofida

$$\varphi(x) = f(x_0) + (x-x_0)^T \nabla f(x_0) + 1/2(x-x_0)^T G(x_0)(x-x_0) \quad (15)$$

funksiya bilan approksimatsiya qilish mumkinligi kelib chiqadi, bu yerda $G(x_0)$ - x_0 nuqtada hisoblangan Gesse matritsasi. U holda $f(x)$ funksiya minimumining approksimatsiyasi sifatida $\varphi(x)$ funksiyani minimumi x_m nuqtada bo'lsa, u holda $\nabla \varphi(x_m) = 0$, bu yerdan $x_m = x_0 - G^{-1}(x_0) \nabla f(x_0)$, yoki

$$x_m = x_0 - G^{-1}(x_0) g(x_0). \quad (16)$$

Shunday qilib (9) iteratsion tenglamani modifikatsiya qilish mumkin va x_i minimumining navbatdagi approksimatsiyasi

$$x_{i+1} = x_i - G^{-1}(x_i) g(x_i) \quad (17)$$

bo'ladi yoki, yanada qulayroq ko'rinishda

$$x_{i+1} = x_i - \lambda_i G^{-1}(x_i) g(x_i) \quad (18)$$

bo'ladi, bu yerda qadam uzunligi λ_i bir o'lchovli qidiruv yordamida $G^{-1}(x_i) g(x_i)$ yo'nalish bo'yicha aniqlanadi. Nyuton- Rafson usuli oxirgi tenglamaga asoslangan. Biz bu usulga batafsil to'xtalib o'tirmaymiz, balki uning bazi bir xususiyatlarini eslatib o'tamiz. (17) va (18) tenglamalar shu yechilishda Gessi matritsasiga teskari matritsani hisoblashni har bir qadamda talab etadi. Bu ko'p hollarda hisoblashlarning asosiy qismini tashkil etadi. Agarda x_i nuqta x^* nuqtaga yaqin joylashgan bo'lsa u holda yaqinlashish tez bo'ladi chunki umumiy holda bu atrofda $\varphi(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyani yaxshi approksimatsialaydi $|g(x_{i+1})|$, gradyentning normasini va nuqtalar orasidagi $|x_{i+1} - x_i|$ masofani to'xtash qadamining bajarilishiga tekshirib ko'rish kerak. Takidlash kerakki, oddiy eng tez tushish

usuliga taqqoslashda bu holda tushish yo'nalishi $-g(x_i)$, emas, balki $-G^{-1}(x_i)g(x_i)$, bo'ladi, bunda ikkinchi hosilalari ham hisobga olinadi. Devidon-Fletcher-Pauell usuli bilan i -bosqichdagi qidiruvni $-H_i g(x_i)$, yo'nalishida olib borib eng yaxshi natijani olish mumkin, bu yerda N_i musbat aniqlangan simmetrik matrissa va u oxirida $-G^{-1}(x^*)^1$ ga teng bo'ladi. Shunday qilib, bu usul $G(x_i)$ matrissani har bir qadamda teskarisini topish va hisoblashni aylanib o'tadi. Natijada har bir iteratsiada qidiruv yo'nalishi iteratsion usulning samaradorligi manosida hal qiluvchi faktor bo'lib qoladi. Har bir iteratsiada eng yaxshi yo'nalish bo'yicha bir o'lchovli qidiruv bajarish maqsadga muvofiqdir. (13) ko'rinishdagi n o'zgaruvchili kvadratik funksia uchun eng yaxshi yo'nalish oldingi qidiruv yo'nalishiga qo'shma bo'lgan yo'nalishdir. Avval bu yo'nalishga ta'rif beramiz, so'ngra uning afzalligini tushuntiramiz.

Ikkita p va q yo'nalishlar musbat aniqlangan simmetrik G matrissaga musbat qo'shma yo'nalishlar deyiladi, agarda

$$P^T G_q = 0. \quad (19)$$

bo'lsa. Ko'rsatish mumkinki, agar $r_0, p_1, \dots, r_{n-1}$ lar n ta o'zaro qo'shma yo'nalishlar bo'lsa ular chiziqli bog'lanmagandir. Aks holda hech o'lmaganda birortasi noldan farqli $\alpha_0, \alpha_1, \dots, \alpha_{n-1}$, o'zgarmaslar mavjudki $\alpha_0 r_0 + \alpha_1 r_1 + \dots + \alpha_{n-1} r_{n-1} = 0$. bo'ladi. U holda ixtiyoriy $k_{n-1}, (0 < k < n - 1)$ uchun

$$p_k^T G \sum_{j=0}^{n-1} \alpha_j p_j = 0$$

tenglik o'rinli, bu yerda $\alpha_k p_k^T G p_k = 0$, chunki o'zaro qo'shma bo'lganligi uchun boshqa barcha hadlar yo'qolib ketadi ($r_k^T G p_j = 0, k \neq j$). G matrissa musbat aniqlangan va $r_k \neq 0$ bo'lganligi uchun $\alpha_k = 0$. bo'ladi. Bu yerdan $r_0, p_1, \dots, r_{n-1}$ vektorlarning chiziqli bog'lanmaganligi kelib chiqadi. Keying hisoblashlardan oldin (13) funksiani $F(x) = a + x^T b + 1/2 x^T G x$, ko'rinishda yozib olish qulay shu bilan birga uning minimum $x^* = -G^{-1}b$ nuqtada bo'ladi.

Bu minimumga o'tish malum shartlar bajarilganda o'rinli,

$$F(x) = F(x^*) + (x - x^*)^T \Delta F(x^*) + 1/2(x - x^*)^T G(x - x^*) = F(x^*) + 1/2(x - x^*)^T G(x - x^*) \text{ (chunki } \Delta F(x^*)=0) = a + x^{*T} b + 1/2x^{*T} Gx^* + 1/2(x - x^*)^T G(x - x^*) = a - 1/2b^T G^{-1} b + 1/2(x - x^*)^T G(x - x^*)$$

yoki

$$F(x) = s + 1/2(x - x^*)^T G(x - x^*), \quad (20)$$

bu yerda $c = a - 1/2b^T G^{-1} b = G(x - x^*)$ — o'zgarmas.

Faras qilaylik (20) funksia minimumini qidirish uchun iteratsion jarayon qo'llanilsin. Tushunarliki, qidiruv yo'nalishi haqida darhol qaror qabul qilish kerak emas (xuddi, masalan, kordinata bo'yicha tushish usuli bilan qidiruvdagi kabi), balki keying qidiruv yo'nalishini aniqlash maqsadida qidiruvning oldingi bosqichlaridan olingan malumotlarni yig'ish kerak. Qidiruvni x_0 dan boshlaymiz va minimumini

$$x_1 = x_0 + \lambda_0 r_0, \quad (21)$$

nuqtada topish maqsadida p_0 yo'nalish bo'yicha olib boramiz, bu yerda λ_0 — biror skalyar miqdor. Takidlab o'tamizki, x_1 nuqtada $g(x_i) = \Delta F(x_i)$ yo'nalish p_0 yo'nalishga ortogonal va

$$g(x_1)^T p_0 = 0 \quad (22)$$

((16) va (12) tengliklarga qaralsin);

Umuiy holda i -qadamda qidiruv p_i yo'nalish bo'yicha

$$x_{i+1} = x_i + \lambda_i r_i \quad (23)$$

nuqtaga keladi, bu yerda $F(x)$ uchun

$$g(x_{i+1})^T p_i = 0; \quad (24)$$

$$g(x_i) = G(x_i - x^*). \quad (25)$$

munosabatlar o'rinli.

(23) tenglamani qayta qayta qo'llab n -qadamdan keyin $0 < j < n-1$ oraliqdagi barcha j -lar uchun x_0 ni hosil qilamiz.

$$x_n = x_{n-1} + \lambda_{n-1} R_{n-1} = x_{n-2} + \lambda_{n-2} r_{n-2} + \lambda_{n-1} r_{n-1} = x_i + \sum_{i=j+1}^{n-1} \lambda_i p_i \quad (26)$$

Shunday qilib (25) tenglamaga asosan

$$G(x_n - x^*) = G(x_{j+1} - x^*) + \sum_{i=j+1}^{n-1} \lambda_i G p_i$$

Natijada (27)

$$g(x_n)^T p_i = g(x_{j+1})^T p_j + \sum_{i=j+1}^{n-1} \lambda_i p_i^T G p_i$$

(28)

va (28), tenglamadan

$$g(x_n)^T p_i = g(x_{j+1})^T p_j + \sum_{i=j+1}^{n-1} \lambda_i p_i^T G p_i$$

(29)

ni hosil qilamiz. Endi, agar barcha $r_0, p_1, \dots, r_{n-1}$ vektorlar $p_i^T G p_j = 0 \quad i \neq j$ u holda (24) munosabatdan $g(x_n)^T p_j = 0 \quad j = 0, 1, \dots, n-1$. Bo'lganda kelib chiqadi. Biroq $r_0, p_1, \dots, r_{n-1}$ vektorlar chiziqli bog'lanmagan va shuning uchun bazis hosil qiladi, bu holda

$$g(x_n) = 0,$$

(32)

bu yerdan $G(x_n - x^*) = 0$

va

$$x_n = x^*.$$

(33)

natijada agar qidiruv o'zaro qo'shma yo'nalishlar bo'yicha olib borilsa n o'zgaruvchili kvadratik funksianing minimumini ko'p bilan n qadamda topiladi. Bir o'zgaruvchili funksiyalar uchun Fletcher-Rivs usuli shu g'oyaga asoslangan.

3-§ Davidon – Fletcher – Pauell usuli

Davidon – Fletcher – Pauell usuli (DFP) (16) va (18) munosabatlarga asoslangan, biroq bunda har bir qadamda teskari Gessuan $G^{-1}(x_i)$ ni hisoblash talab etilmaydi, chunki i - qadamdagi qidiruv yo'nalishi

$-H_i g(x_i)$, bunda N_i musbat aniqlangan simmetrik matrissa bo'lib har bir qadamda yangilanadi. Buni quyida bayon etamiz. Limitda H matrissa teskari Gessuanga teng bo'lib qoladi.

Qidiruvni x_0 boshlang'ich nuqtadan boshlaymiz. H_0 boshlang'ich matrissa bo'lsin. (odatda birlik matrissa olinadi, biroq qaralayotgan holda ixtiyoriy musbat aniqlangan simmetrik matrissa olish mumkin). Iteratsion jarayon quyidagicha ($g(x_i)$ o'rniga qulaylik uchun g_i yozilgan) bo'ladi:

1. i -qadamda x_i nuqtaga va H_i matrissa berilgan.
2. qidiruv yo'nalishi sifatida.

$$d_i = -H_i g_i \quad (34)$$

yo'nalish olinadi

3. $f(x_i + \lambda_i d_i)$ funksiyani minimallashtiruvchi λ_i ni topish uchun $x_i + \lambda d_i$ to'g'ri chiziq bo'ylab bir o'lchovli qidiruv bajariladi.

$$4. \quad v_i = \lambda_i d_i \quad (35)$$

deb belgilanadi

$$5. \quad x_{i+1} = x_i + v_i$$

$$x_{i+1} = x_i + v_i \quad (36)$$

deb belgilanadi.

6. $f(x_{i+1})$ va g_{i+1} topilsin. $|g_{i+1}|$ yoki $|v_i|$ lar yetarli kichik bo'lsa jarayon to'xtatilsin, aks holda davom ettiriladi. Eslatma: (24) munosabatdan

$$G_{i+1}^T v_i = 0 \quad (37)$$

kelib chiqadi.

$$7. \quad u_i = g_{i+1} - g_i \quad (38)$$

deb belgilanadi.

8. H matrissa quyidagicha yangilanadi

$$N_{i+1} = N_i + A_i + V_i, \quad (39)$$

bu yerda

$$A_i = v_i v_i^T / (V_i^T u_i) \quad (40)$$

$$B_i = -H_i u_i \frac{u_i^T H_i u_i}{u_i^T H_i u_i} \quad (41)$$

9. i -bir birlikka oshiriladi va ikki qadam qaytiladi.

Jarayonni Fletcher – Pauell izohi bo'yicha oydinlashtiramiz:

Agar v_i funksia kamayuvchi va λ_i musbat bo'lsa jarayon turg'un bo'ladi,

g_i - eng tez o'sish yo'nalishi bo'lganligi uchun v_i -funksiya

$$-V_i^T = -g_i^T V_i = \lambda_i g_i^T H_i g_i \quad (42)$$

ko'paytma musbat bo'lganda kamayadi. Bu ixtiyoriy i -uchun H_i –simmetrik musbat aniqlangan matrissa bo'lsa o'rinli. H_0 boshlang'ich matrissa tarifga ko'ra bu xossalarga ega. Yangilash jarayonida (39) va (41) munosabatlarga asosan gessuanning simmetrikligi saqlanadi. Induksia usuli bilan, H_i matrissa yangilangandan keyin musbat aniqlanganligi qolishini ko'rsatamiz

$$C_i^T C_i = C_i C_i^T = H_i \quad (43)$$

$$p = C_i \eta \text{ va } q = C_i \quad (44)$$

bu yerda η ixtiyoriy vektor

U holda

$$\begin{aligned} \eta^T H_{i+1} &= \eta^T H_i \eta + \frac{\eta^T v_i v_i^T \eta}{v_i^T u_i} - \frac{\eta^T H_i u_i u_i^T H_i \eta}{u_i^T H_i u_i} = \\ &= p^2 - \frac{(p^T q)^2}{q^2} + \frac{(\eta^T v_i)^2}{v_i^T U_i} = \frac{p^2 q^2 - (p^T q)^2}{q^2} + \frac{(\eta^T V_i)^2}{V_i^T U_i} \geq \frac{(\eta^T V_i)^2}{V_i^T U_i} \end{aligned} \quad (45)$$

Shvarts tengsizligiga ko'ra $p^2 q^2 > (p^T q)^2$ bo'lganligi uchun (45) munosabatda maxraj musbat aniqlangan, chunki $V_i^T U_i = V_i^T |g_{i+1} - g_i| = -V_i^T g_i$. Natijada (37) tenglamadan $V_i^T g_{i+1} = 0$

$$V_i^T U_i = \lambda_i g_i^T H_i g_i > 0 \quad (46)$$

chunki $\lambda_i > 0$ va H_i matrissa musbat aniqlangan shunday qilib $\eta^T H_{i+1} \eta > 0$ bu esa H_{i+1} musbat aniqlanganligini aniqlaydi.

a) Endi agar DFP usuli musbat aniqlangan G matrissali kvadratik funksiya ((1.13) ga qaralsin) ga qo'llanilsa, u holda $H_n = G^{-1}$ va minimumini qidirish n qadamdan keyin to'xtatiladi. Isbotlash uchun $v_0, v_1, v_2, \dots, v_k$ vektorlar barcha teng mos qiymati H_{k+1} G matrissaning chiziqli bog'lanmagan vektorlari ekanligini ko'rsatish yetarli. Takidlab o'tamizki (38) munosabatdan

$$u_i = g_{i+1} - g_i = Gx_{i+1} - Gx_i = Gv_i \quad (47)$$

kelib chiqadi. Bundan tashqari $H_{i+1}Gv_i = H_{i+1}u_i = H_i u_i + A_i u_i + B_i u_i = H_i u_i + v_i - H_i u_i$ bu (39)-(41) munosabatlar va $V_i^T U_i$ va $U_i^T U_i$ larni qisqartirish mumkinligidan kelib chiqadi. Shunday qilib

$$H_{i+1}Gv_i = v_i \quad (48)$$

so'ngra, induksia usuli bilan $k=2, 3, \dots, n$ lar uchun

$$0 \leq j < k \text{ bo'lganda } V_i^T G V_j = 0$$

(49)

$$0 \leq j < k \text{ bo'lganda } H_k G v_i = v_i \quad (50)$$

bo'lishini ko'rsatamiz. Isbotlash uchun (48) munosabatda $i=0$ deb olamiz va $H_1 G v_0 = v_0$ ni hosil qilamiz yani (50) munosabatni $k=1$ bo'lganda hosil qilamiz. $k=2$ bo'lganda (50) munosabat ko'rinishni oladi. $H_2 G v_0 = v_0$ va $H_2 G v_1 = v_1$. Ikkinchi tenglik (48) munosabatdan $i=1$ bo'lganda kelib chiqadi. Birinchi tenglik

